

Date: 11th December-2025

IJTIMOIIY TARMOQLAR VA BOLALAR: OTA-ONANING ELEKTRON MUHITDAGI MAS'ULIYATI

Raximov Sherbek Kamolovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Maxsus fanlar sikli o'qituvchisi, mayor

+99899-798-59-70

Annotasiya: Mazkur maqolada axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning bolalar hayotiga va tarbiyasiga ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Internet va ijtimoiy platformalarning bolalar dunyoqarashi, xulq-atvori hamda ruhiy holatiga ta'siri haqida turli ma'lumotlar va dolzarb misollar asosida fikr yuritilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali yuzaga kelayotgan kiberbulling, yolg'on axborotlar, ruhiy bosim, vaqtni samarasiz o'tkazish, axloqiy tahdidlar kabi muammolarga alohida e'tibor qaratilgan. Ota-onalarning elektron muhitdagi mas'uliyati, bolalarni himoya qilishdagi o'rni, ularga axborot savodxonligini o'rgatish va raqamli axloqni shakllantirish borasida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, bolalar tarbiyasi, ota-onaning mas'uliyati, elektron muhit, kiberbulling, axborot xavfsizligi.

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализировано влияние информационных технологий и социальных сетей на жизнь и воспитание детей. Рассмотрены различные данные и актуальные примеры, касающиеся влияния интернета и социальных платформ на мировоззрение, поведение и психологическое состояние детей. Особое внимание уделено таким проблемам, как кибербуллинг, распространение ложной информации, психологическое давление, нерациональное использование времени и моральные угрозы, возникающие через социальные сети. В статье также даны рекомендации по повышению ответственности родителей в цифровой среде, защите детей, обучению их медиаграмотности и формированию цифровой этики.

Ключевые слова: Социальные сети, воспитание детей, ответственность родителей, цифровая среда, кибербуллинг, информационная безопасность.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the impact of information technologies and social media on children's lives and upbringing. It discusses various data and relevant examples illustrating how the internet and social platforms influence children's worldview, behavior, and psychological state. Special attention is given to issues such as cyberbullying, misinformation, psychological pressure, inefficient time management, and moral threats emerging through social networks. The article also offers recommendations on enhancing parental responsibility in the digital environment, protecting children, teaching them media literacy, and fostering digital ethics.

Keywords: Social media, child upbringing, parental responsibility, digital environment, cyberbullying, information security.



Date: 11th December-2025



Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hayotimizning barcha jabhalariga, jumladan, oila muhiti va bolalar tarbiyasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar bolalar va o'smirlar hayotida muhim o'rin egallab, ularning tafakkuri, dunyoqarashi va hatto shaxsiy munosabatlarini shakllantirishga kuchli ta'sir o'tkazmoqda.

Afsuski, bolalar ijtimoiy tarmoqlardagi axborotni tanlash va tahlil qilish qobiliyatiga to'liq ega emasligi sababli, ular yolg'on ma'lumotlar, virtual tahdidlar, noxush kontent va salbiy ta'sirlardan himoyaga muhtojdirlar. Shu nuqtai nazardan, ota-onalarning elektron muhitdagi mas'uliyati bugungi kunda juda dolzarb masalaga aylangan.

Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mulohazalariga e'tibor qaratsak: "...yoshlar hayoti, o'y-kechinmalari, orzu-niyatlari, eng muhimi, ularni qiynayotgan masalalar, afsuski, radio va televideniye, gazeta va jurnallarda o'z ifodasini to'liq topmayapti. Go'yoki hamma narsa joyida, olam guliston. Agar hammasi joyida bo'lsa, to'g'ri yo'ldan adashgan yoshlar, jinoyatchilik, ishsizlik qayerdan paydo bo'lyapti? Nega yoshlarga oid davlat siyosatiga loqayd munosabatda bo'layotgan amaldorlar haqida ommaviy axborot vositalari, avvalo, yoshlar matbuoti churq etmaydi?"³.

Global axborot tizimidagi xabarlarini "filtrsiz" qabul qilish oqibatida yoshlar ongi zaharlanmoqda. Masalan, biror kerakli ma'lumotni olish maqsadida saytga kirgan yoshlarning "falonchi mashhur shaxs halokatga uchradi" kabi shov-shuvli e'longa ko'zi tushadi va beixtiyor uni ochadi. U yerda esa yana bir sayt ochiladi va unda aldamchi xabarlarining davomini o'qiydi. Shu tariqa g'o'r yoshlar g'alamislarning tuzog'iga ilinadi.

Bunday jirkanch "madaniyat" ta'siriga berilgan o'smir loqayd, hayotga yengil-yelpi qaraydigan, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo'lib ulg'ayadi. Shuningdek, olomoncha madaniyat tuzog'iga ilingan bolalar inson istagan ishini qilaverishi mumkin, deb biladi, ya'ni o'taketgan manqurtga aylanib qoladi⁴.

Ijtimoiy tarmoqlarning oila va jamiyat barqarorligiga solayotgan eng katta taxdidlaridan yana biri – ulardagi muloqotlar sababli ko'plab tinch-totuv oilalar barbod bulib ketayotganidir.

Bugungi raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar bolalar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Bolalar va o'smirlar uchun **Instagram, TikTok, Telegram, YouTube** va boshqa platformalar nafaqat axborot manbai, balki muloqot, o'yin-kulgi va shaxsiy fikr ifodasining maydoniga aylanmoqda. Bu holat, albatta, ma'lum ijobiy jihatlarga ega bo'lsa-da, nazoratsiz va me'yorsiz foydalanish jiddiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

DataReportalning 2025-yilgi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 2025-yil yanvarida O'zbekistonda **32,7 million** internet foydalanuvchisi bo'lgan. O'zbekistonda internetdan foydalanish darajasi jami aholining **89,0 foizini** tashkil qildi. 2025-yil yanvarida O'zbekistonda **11,7 million** faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo'lgan.

³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T: "O'zbekiston", 2017. 17-bet.

⁴ Xaydarova X.R. Axborotlashgan jamiyat sharoitida otaonalarining virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari. Monografiya. –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi" 2022. 168-bet.

Date: 11th December-2025

O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari 2024-yil boshidan 2025-yil boshigacha **3 millionga (+33,9 foiz)** oshgan⁵.

Ijtimoiy tarmoqlarning bolalarga salbiy ta'siri nimada?

Psixologik ta'sir: Bolalarda ijtimoiy taqqoslash, noto'g'ri ideallarga ergashish, kambag'allik hissi va depressiya holatlari ortib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar ichida eng xavflisi ham Instagramdir. Britaniya Sog'liqni saqlash tashkiloti mutasaddilari 14 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan 1,5 mingga yaqin yoshlar orasida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazdi. Natijada, muntazam Instagramga kiradiganlar orasida depressiya va agressiv kayfiyat yuqori ekani aniqlandi. O'smirlar orasida Instagramga kiruvchilar doimiy charchoq va uyqusizlik dardidan shikoyat qilgan.

Instagramning eng salbiy ta'siri xudbinlik xarakterini uyg'otishidir. Do'stingiz yoki hamkasbingizning sahifasini kuzatib, undagi zo'r sharoitlarni o'zingizniki bilan taqqoslaysiz va o'z-o'zidan sizda, "nimaga unda bori menda yo'q", degan savolni paydo qiladi. Eng yomoni, insonning o'ziga bo'lgan ishonchini so'ndiradi.

Vaqtni samarasiz o'tkazish: Ta'lim, uy vazifalari va jismoniy faollik uchun ajratilishi kerak bo'lgan vaqt ijtimoiy tarmoqlarga sarflanyapti.

Amerikalik o'smirlar yettita mashhur ijtimoiy media ilovasidan foydalanishda kuniga o'rtacha soatlar soni, **YouTube, TikTok va Instagram** ijtimoiy tarmoqlardagi vaqtlarining **87 foizini** tashkil qiladi. Xususan, o'smirlarning **37 foizi** kuniga **5 yoki undan ko'proq soat**, **14 foizi** kuniga **4 soatdan 5 soatgacha**, **26 foizi** kuniga **2 soatdan 4 soatgacha**, **23 foizi** esa kuniga **2 soatdan kam** vaqtini ushbu uchta ilovaga sarflashini aytadi⁶.

Onlayn xavflar: Kiberbulling - boshqalarni internet orqali haqorat qilish, masxaralash, tahdid qilish holatlari. Bu bolalarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, noo'rin kontentlar, aldamchi shaxslar bilan aloqa va shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi asosiy muammolardir.⁷

Axloqiy xavflar: Yoshlarda noto'g'ri hayotiy qadriyatlarni qabul qilish, virtual dunyoga berilib ketish, voqelikdan uzilish holatlari kuzatilmoqda.

Tadqiqotda ota-onalar va yoshlar fikridan kelib chiqib, Virtual olamda ota-onalarning farzandlariga nisbatan 3 toifasini aytish mumkin:

Birinchisi, har qanday holatda ham farzandlariga kompyuterdan, elektron axborot vositalaridan foydalanishni, turli virtual o'yinlarni o'ynashni, umuman internetga kirishni qat'iy cheklaydi;

Ikkinchisi, virtual muloqotlar, o'yinlar, axborot almashinuvida ma'lum bir vaqt chegaralarni qo'yadigan ota-onalar;

Uchinchisi, har qanday holatda ham farzandlarini kompyuter vositalaridan foydalanishini cheklamaydi, qancha xohlasa shuncha vaqt foydalanish imkoniga ega

⁵ <https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan>

⁶ Rothwell, J. (October 27, 2023). *Parenting mitigates social media-linked mental health issues*. Gallup. Survey conducted between June 26–July 17, 2023.

⁷ Rothwell, J. (2023). *How parenting and self-control mediate the link between social media use and mental health*. <https://ifstudies.org/ifs-admin/resources/briefs/ifs-gallup-parentingsocialmediascreentime-october2023-1.pdf>

Date: 11th December-2025

farzand. Internet, virtual olam orqali ushbu ota-onaning farzandi barcha ma'lumotlarni o'z xohlagancha, xohlagan vaqt mobaynida o'tiraveradi.⁸

Ota-onaning mas'uliyati nimada?

Ota-ona bolalarni virtual muhitda yolg'iz qoldirmasligi zarur. Ularning axborot iste'molini nazorat qilish, xavfsiz internet madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ota-onalarning muhim vazifasidir.

Mehr va ishonch muhitini yaratish: Bola o'zini erkin ifoda eta oladigan, savollar beradigan va fikri eshitiladigan oila muhitini his qilishi lozim.

Aniq chegaralarni belgilash: Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanish uchun kunlik vaqt chegarasi, man etilgan kontentlar va ekran oldidagi vaqt miqdori kelishib olinishi kerak.

Faol muloqot va tushuntirish: Bolalarga nima uchun ayrim kontentlar xavfli ekanligi, qanday holatlarda kattalarga murojaat qilish kerakligi izchil tushuntirilishi lozim.

Texnologik yechimlardan foydalanish: Nazorat ilovalari (parental control), xavfsiz rejimlar va bolalar uchun mo'ljallangan platformalardan foydalanish orqali bolalarni himoya qilish mumkin.

Xulosa o'rnida, hozirgi raqamli davrda bolalarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi ortib borayotgan bir paytda, ota-onalarning bu jarayondagi roli va mas'uliyati yana-da muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar bolalarga bilim, axborot va muloqot imkoniyatini bersa-da, ulardagi nazoratsiz faoliyat ko'plab salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, har bir ota-ona farzandining faqat real hayotida emas, balki virtual muhitdagi xavfsizligiga ham e'tibor qaratishi lozim.

Ota-onalar, ta'lim muassasalari va jamiyat uchun amaliy tavsiyalar va chora-tadbirlar:

- **birinchidan**, ota-onalar uchun raqamli savodxonlik kurslarini tashkil etish, maktab va mahalla tizimida ota-onalarga elektron muhitdagi xavflar, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish usullari va bolalarni nazorat qilish imkoniyatlari haqida maxsus o'quv seminarlari tashkil qilish;

- **ikkinchidan**, maktablarda "axborot madaniyati" darslarini joriy etish, yoshlarning raqamli dunyoda xavfsiz harakat qilishi, axborotni tahlil qilish va shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilishni o'rgatadigan fan yoki to'garaklar tashkil etilishi zarur;

- **uchinchidan**, ijtimoiy tarmoqlarning bolalar uchun xavfsiz platformalarini rivojlantirish, davlat va xususiy sektor hamkorligida bolalarga mo'ljallangan xavfsiz, ta'limiy va foydali kontent platformalarini yaratish va targ'ib qilish kerak;

- **to'rtinchidan**, media va axborot sohasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, noto'g'ri va bolalarga zararli kontent tarqatuvchi sahifalarni faol aniqlash, fuqarolik jamiyati ishtirokida ularni cheklash bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqish;

- **beshinchidan**, ota-ona va bola o'rtasida "raqamli kelishuv" shakllantirish, oilada internetdan foydalanish tartibi, vaqt limiti, qanday hollarda kattalarga murojaat qilish kerakligi kabi kelishuv asosida faoliyat yuritish tavsiya etiladi.

⁸ Xaydarova X.R. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari. Monografiya. –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi" 2022. 168-bet.



Date: 11th December-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli Qarori. 2017-yil 28-iyul.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T: “O‘zbekiston”, 2017. 17-bet.
3. Xaydarova X.R. Axborotlashgan jamiyat sharoitida otaonalarining virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari. Monografiya. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi” 2022. 168-bet.
4. Rothwell, J. (October 27, 2023). *Parenting mitigates social media-linked mental health issues*. Gallup. Survey conducted between June 26–July 17, 2023.
5. Rothwell, J. (2023). *How parenting and self-control mediate the link between social media use and mental health*. <https://ifstudies.org/ifs-admin/resources/briefs/ifs-gallup-parentingsocialmediascreentime-october2023-1.pdf>.
6. <https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan>

